
Iqtidorli talabalarning onalari sharaflandi

Odatda onani mehribon volida deymiz. Chunki har bir inson uchun onadan mehribon va yaqin kishi yo'q, ona siz bilan bizni dunyoga keltirib, ko'z qorachig'idek asrab-avaylab voyaga yetkazibgina qolmay, hamma vaqt quyosh yanglig' hayotimizga nur ato etadi, tunimizni yorug', yo'limizni esa oydin qiladi. Farg'ona politexnika institutining Qurilish fakul'tetida dekan muovini Ra'noxon Boyqo'ziyeva hamda barcha tyutorlar tashabbusi bilan "Onalarga ehtirom" tadbiri bo'lib o'tdi. Tadbirda fakul'tet dekani Shohrux Dovlyatov o'quv yili davomida jamoat va o'quv ishlarida yutuqlarga erishgan iqtidorli talabalar onalariga tashakkurnomalar taqdim etdi.

Samimiy suhbat davomida yosh avlodning erishayotgan yutuqlarida albatta, onalarning o'rni beqiyos ekanligi ta'kidlandi. Ularga ehtirom ko'rsatilib guldastalar va esdalik sovg'alari topshirildi.

2022-06-13 09:59:56